

QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Oodirjon Raximov

NamDU Musiqa ta'limi va
madaniyatshunoslik kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'quvchilarga Vatan insonni kindik qoni to'kilgan muqaddas makon ekanligi, bizning vatandoshlarimiz jaxon adabiyoti durdonalariga o'zlarinig yozgan asarlari, barpo etgan imoratlari, asori atiqalari bilan bugungi kunda va har doim dunyo axlini lol qoldirgan bunday buyuk navqiron va bepoyon Vatanni sevish ardoqlash xam farz ham qarz ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Kalit so'zlar: qo'shiq, ona yurt, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiya.

ФОРМИРОВАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ПЕСНИ

Кодиржон Рахимов,

НамГУ музыкального образования и
преподаватель кафедры культурологии

АННОТАЦИЯ

Читателям о том, что Родина – это священное место, где проливается пуповинная кровь человека, и что наши соотечественники любят такую великую и бесконечную Родину, которая сегодня и всегда поражает умы мира шедеврами мировой литературы, произведения, которые они написали, здания, которые они построили, и произведения искусства. тоже обязательно. Следует отметить, что это долг.

Ключевые слова: песня, Родина, патриотизм, образование, педагогическая технология.

FORMING PATRIOTIC FEELING IN STUDENTS THROUGH SONGS

Qodirjon Rakhimov

NamSU Music Education and
teacher of the department of cultural studies

ABSTRACT

To the readers that the Motherland is a sacred place where the umbilical cord blood of a person is shed, and our compatriots love such a great and endless Motherland, which amazes the minds of the world today and always with the masterpieces of world literature, the works they wrote, the buildings they built, and the works of art. obligatory too It should be noted that it is a debt.

Keywords: song, motherland, patriotism, education, pedagogical technology

Qo‘shiq o‘rgatishda vatanparvarlik tarbiyasi juda keng qamrovli mavzu O‘zingizga xech savol berganmisiz? Inson qachon qo‘shiq aytadi? Qachon xirgoyi qilib yuksak kayfiyat bilan biror bir vazifani bajaradi? Qachonki ona yurt tinch bo‘lsa, osmon musaffo bo‘lib, bog‘u-rog‘lar gullarga burkansa , ota-onalarimiz sog‘-omon bo‘lishsa farzandlarimiz sog‘lom aqlli bilimli bo‘lgandagina xayot zavqini yashash zavqini xis etasiz va bundan xuzur olasiz ana o‘shandagina beixtiyor qo‘shiq kuylaysiz raqsga tushasiz.

Vatanning o‘zi qo‘shiq. Biz ta‘lim berayotgan o‘quvchilarimizga eng avvalo ona yurtni sevishni uni ardoqlashni unga sadoqat beilan sidqidildan xizmat qilish burch va vazifasi ekanligani tushuntirishimize kerak. Muqaddas Qur‘oni Karim va hadislarda inson tarbiyasiga keng o‘rin ajratilgan. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik tarbiya sini shakllantirish masalasi asosiy falsafiy-ahloqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy burch va vazifa bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Zero, tarbiyasiz hech qanday rivojlanish va taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Respublikamizda ta‘lim va tarbiya jarayonning uzluksizligini ta‘minlash oila, bolalar bog‘chalari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylari, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv maskanlari jamoatchilik, malaka oshirish va qayta kasbga tayyorlash tizimlari ish mazmuni va shaklini jamiyat taraqqiti talablariga moslashtirish, umum insoniy va milliy qadriyatlar mohiyatini o‘quv fanlari mazmuniga singdirish orqali yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslarini shakllantirish pedagogika, halq pedagogikasi va psixologiya fanlarining yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish, iste‘dodli va iqtidorli yoshlarni topish, ularni qo‘llab quvatlash hamda

qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarini yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish, yosh avlodni hozirgi zamon kasb- hunar sirlari, mehnatga ijobiy munosabat ruhida tarbiyalash hamda bu uzluksiz pedagogik jarayonni tashkil etuvchi kadrlar tayyorlash va boshqa muhim masalalarga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati oldida o'zining yuksak potentsial imkoniyatlarini namoyon qila boshladi. Xalqaro arenada teng huquqli davlatlar O'zbekiston o'zining tarixan boy, sharqona betakror an'analar va madaniyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligini birin-ketin tan ola boshladilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev isloxlarni yangi davriga xos vazifalarini belgilab berar ekan, u shunday deydi: «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalqimizning qadimiy ma'naviy bisoti xilma-xil shaklda turli qadimiy arxitektura yodgorliklari, xaykallar, rasmlar, an'anaviy urf-odatlar va boshqa tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan.

O'quvchilarga Vatan insonni kindik qoni to'kilgan muqaddas makon ekanligi, bizning vatandoshlarimiz jaxon adabiyoti durdonalariga o'zlarinig yozgan asarlari, barpo etgan imortlari, asori atiqalari bilan bugungi kunda va xar doim dunyo axlini lol qoldigan bunday buyuk navqiron va bepoyon Vatanni sevish ardoqlash xam farz xam qarz ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ajdodlarimizdan estalik bo'lib qolgan xalq og'zaki ijodiyoti va qo'shiqlari shunday ma'naviy bisotimizning bir qismini tashkil etadi. Yosh avlodga milliy rux, bag'ishlaydigan bu ulkan me'rosning salmoqli bir bo'lagini qo'shiqlar tashkil qiladi. Xalqimizning milliy ruxiyatini o'ziga singdirgan va yosh avlodning ilmiga milliy an'analari ruxini olib kiradigan bu hofizlar ijro etgan Qo'shiqlarni yoshlar tarbiyasiga tadbiiq etish ko'p jixatdan mukammal o'rganilgan emas. Bu esa, shu sohaning mutaxassisi bo'lgan o'qituvchi ustozlarga katta ma'suliyat yuklaydi. Bo'lajak ustozlar, xususan musiqa kulliyoti bakalavrlari Xalq hofizlari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar o'rta ta'lim maktablarida o'tgan yillar davomida mukammal o'rganib kelmokda. Yangi standartlar asosida tuzilgan o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda vatanparvarlik tarbiyasini singdirish ularning ongiga milliy ruxni singdirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratib berilgan. Bugungi kunda yoshlarga ko'proq vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlarni iloji boricha ko'proq o'rgatishimiz kerakki, bu ularning o'zlarini takomillashtirishlari, ma'naviy o'sishlari, hayot yo'llarini tanlashda masuliyatli qarorlar qabul qilishda ko'maklasha olish kerak. O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktablarida hozirgi zamon musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi- yosh avlodni milliy musiqa ma'rosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan va qadrlaydigan madaniyatli

ona Vatanni sevuvchi ,erkin fikr yurita oladaigan jaxon arenalarida o‘zining jarangdor ovozi bilan O‘zbekistonimiz madxini baralla kuylay oladigan inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir.

Vatanimiz o‘zining nafaqat hayratga soluvchi bebaho moddiy yodgorliklari bilan, balki ma’naviy olami – nafis, betakror san’ati bilan ham qadimdan mashhur va manzur. Ma’naviy va moddiy boyliklar yaratish inson tabiatiga xos fazilatlardan. Moddiy ne’matlarsiz odam yashay olmaganidek, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida ma’naviy qadriyatlarsiz istiqboli ham yo‘q.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”[1.], - deydi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. 2021 yil 19 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan ushbu ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari yangi O‘zbekistonning mafkurasi deganda, avvalo, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi ekanligini takidlab o‘tdi.

O‘zbek xalqining tarixi chuqur qadimiy ildizga ega bo‘lgani kabi uning qadriyatlari ham shunchalik tarixiy ildizga ega. Xalqning ma’naviy qadriyatlari, ma’naviy merosi uning bolalik davridanoq shakillantirib boriladi. Har bir xalqning milliy an’analari, marosim va udumlari hamda rasm-rusumlari o‘sha xalqning ma’naviy negizini tashkil etadi. Binobarin, ma’naviy qadriyatlar asrlar mobaynida ko‘z qorachig‘iday asrab avaylab kelinadi. Bizning xalqimiz ham bundan mustasno emas.

Moddiy va ma’naviy yodgorliklarda bo‘lganidek, qadimiy kuy-qo‘shlarni saqlab qolishda, ularni asrab-avaylab avlodlardan-avlodlarga yetkazib, meros sifatida qoldirishda ustoz-shogird an’anasining o‘rni beqiyos.

Ma’lumki, yosh avlodni yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lib yetishuvida eng yaxshi urf-odatlar, udumlar, an’analar, sharq odobnomasining ahamiyati katta. Chunki kim yoshlikdan xalqimizning asrlar mobaynida sinovdan o‘tgan pandnomasini yaxshi o‘zlashtirib olsa, ota-bobolarimizning pand nasihatlariga va o‘gitlariga quloq solsa, unday inson elda ichida baland obro‘ va hurmatga sazavor bo‘ladi.

O‘zbek xalqining yozilmagan qonunlari bor, jumladan kattalarni hurmat qilish va ularni e’zozlash o‘zbek xalqining an’anaviy odob qoidasi bo‘lib, u oilada yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Bola oilada katta bo‘lar ekan u an’analar, marosim va urf-odatlar ichida ulg‘ayib boradi.

Xalq kuy-qo‘shlari namunalarida, xususan, dostonlar, nodir pandnomalar, odobnomalar, xikmatu-rivoyatlarda yetuk insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor qaratiladi.

Bola tug‘ilibdiki uning qalbiga alla orqali ta’sir etiladi. Ona o‘z go‘dagiga alla aytar ekan, farzandini komil inson bo‘lib yetishishini, o‘z Vataniq sodiq farzand

bo'lishini tilab kuylaydi. Bu bejiz emas, yaxshi tilaklar bilan o'sgan bolaning ongosti dasturi shunga ko'ra rivoj topadi. Hali murg'akligidanoq onalarimiz:

Istiqboling porloq sening, allayo-alla,
Baxtinga sen omon bo'lgin allayo-alla.

Dunyoda inson zoti borki uning yuragida musiqa, qo'shik va raqsga moyilligi bo'ladi. Sehrli ohanglar og'ushida zavqlanadi, ma'naviy barkamollikka erishadi. Ulkan ijobiy o'zgarishlar jamiyatimizdagi ma'naviyat va madaniyat sohasini tubdan o'zgartirib yubordi.

“Ommaviy madaniyat G'arb madaniyati bilan bog'liq hodisa deb tushuniladi, shuningdek, u g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. XX asrda radio, kino, televideniye, video, kompyuterlar tizimining paydo bo'lishi natijasida ommaviy madaniyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi”. [2.]

Ommaviy madaniyatning biron namunasi milliy mansubligini faqat uning tili yoki ijrochisiga qarab farqlash mumkin. Hozirgi kundagi “Ommaviy madaniyat” ta'siridan saqlovchi xalq ijodiga mansub asarlarimizning kuchi naqadar beqiyos ekanligini his etamiz.

Xalq musiqasi ajdodlarimiz tomonidan bizlargacha yetib kelgan Benazir qadriyatlarimiz, millatimiz ko'rki, iftixoridir. Ular millatimizning ma'naviy, ruhiy boyligi bo'lib, davlatimiz madaniy-ma'naviy mustaqilligini ta'minlashda, yoshlarni sharqona ahloq-odob, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu xislatlarni o'zida jamlagan insonlarga milliy kamolot sari intilib, jamiyatda o'z nufuziga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoev. “Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyun
2. Yo'lcheva M. An'anaviy yakka xonandalik -T.: Fan va texnologiya 2017